

O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. O'QUVCHILARNING AQLIY TARBIYASI

Rahmatullayev Botir Sobir o'g'li

Shahrisabz Davlat Pedagogika Insitetuti

Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedirasi o'qituvchisi

Quroshova Madina Sherzod qizi

Ped 3/24 guruh talabasi

Rahmatullayevbotir70@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8327-7309>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonining didaktik, psixologik va metodik jihatlari tahlil qilingan. Ilmiy tafakkur, tanqidiy yondashuv, dalillarga asoslangan fikrlash va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi shakllanishining samarali yo'llari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogic texnologiyalar, xususan, STEAM yondashuvi, muammo asosida o'qitish va tajriba darslarining o'rni ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ilmiy dunyoqarash, o'quvchilar, ilmiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, pedagogic texnologiyalar, STEAM, metodika

Аннотация: В статье анализируются дидактические, методические и методические подходы к формированию научного мировоззрения учащихся. Выделяются эффективные способы повышения эффективности формирования научного мировоззрения учащихся посредством развития научного мышления, критического научного исследования, мышления, основанного на опыте, а также анализируются современные педагогические технологии, технологии, TEAM-производство, проблемное обучение и роль опыта.

Ключевые слова: научное мировоззрение, учащиеся, научное мышление, критическое мышление, педагогические технологии, STEAM, методология

Abstract: The article analyzes the didactic, technical and methodological approaches to the process of forming a scientific worldview in students. Effective ways to improve the effectiveness of students' worldview through the development of scientific thinking, critical scientific research, experience-based thinking and skills are highlighted. , modern pedagogical technologies, technology, TEAM production, problem-based learning and the role of experience are also analyzed.

Keywords: scientific worldview, students, scientific thinking, critical thinking, pedagogical technology, STEAM, methodology

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri—o'quvchilarda puxta ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal

rivojlanishi, fan va texnikaning barcha sohalarga kirib borishi bugungi yoshavloddan yangicha fikrlash, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish, tanqidiy va mantiqiy tafakkur ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu bois, ta'lim jarayonida o'quvchilarning borliq va voqelikni ilmiy asosda anglash, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarash—bu shaxsning tabiat, jamiyat, inson, fan va texnologiya haqidagi bilimlarga tayangan, asosli, tizimli va izchil qarashlar majmuidir. U faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy faoliyat, mustaqil tadqiqot va hayotiy tajriba orqali shakllanadi. Aynan maktab davri o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda eng muhim davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalarning dunyoni idrok etish darajasi shakllanib, fanlarga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Ushbu maqolada o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy asoslari, bu jarayonning bosqichlari va pedagogic xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim metodlari, integratsiyalashgan yondashuvlar, o'quv motivatsiyasini oshirishning samarali usullari orqali ilmiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan ilg'or tajribalar o'rganiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bilimga asoslangan jamiyatni barpo etish o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishdan boshlanadi.

Materiallar va uslublar

Ushbu tadqiqot o'quvchilarda ilmiy dunyo qarashni shakllantirishga oid pedagogic jarayonlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi metodologik asoslar va usullardan foydalanildi: Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot nazariy va amaliy tahlil usullariga asoslangan. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy adabiyotlar, ta'limiy dasturlar, o'quv-metodik qo'llanmalar va zamonaviy pedagogic texnologiyalar o'rganildi. Empirik ma'lumotlar manbalari: Tadqiqot doirasida bir nechta umum ta'lim maktablarining 6–9-sinf o'quvchilari ishtirokida kuzatishlar va suhbatlar o'tkazildi. Shuningdek, o'qituvchilarning amaliy tajribasi tahlil qilindi, sinfda qo'llanilgan interaktiv metodlar va dars jarayonlari o'rganildi. Asosiy tadqiqot usullari: Tahliliy-metodik usul: ilmiy adabiyotlar va dasturlarni tahlil qilish orqali ilmiy dunyoqarashning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Kuzatuv usuli: dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil fikrlash va ilmiy muloqotga kirishish holatlari kuzatildi. Suhbat va intervyu usuli: o'quvchilar va o'qituvchilar bilan individual va guruhli suhbatlar tashkil etildi. Test va diagnostika usullari: o'quvchilarning ilmiy qarashlarda rejasini aniqlash maqsadida diagnostic savolnomalar tuzildi va tahlil qilindi. Eksperimental dars tahlili: turli interaktiv metodlar (loyiha asosidagi ta'lim, STEAM yondashuvi, problemali o'qitish) orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanishiga ta'siri o'rganildi. Tanlov va ishtirokchilar: Tadqiqot Toshkent shahri va viloyatidagi 4 ta umum ta'lim maktablarining 6–9-sinf o'quvchilari (jami 120 nafar) va ularning fan o'qituvchilari (20nafar) ishtirokida olib borildi. Ushbu sinf Yoshi ilmiy qiziqishning shakllanish bosqichi bo'lganligi sababli tanlandi.

Natijalar va muhokamalar

Tadqiqot davomida yig'ilgan empiric ma'lumotlar asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda quyidagi asosiy natijalarga erishildi: Ilmiy dunyoqarash darajasi yoshga qarab farqlanadi: 6–7-sinf o'quvchilarida ilmiy tasavvurlar ko'proq amaliy tajribaga bog'liq bo'lsa, 8–9-sinflarda bu tushunchalar mantiqiy va nazariy yondashuvlar bilan boyigan. Bubosqichda o'quvchilarning eksperimentlar va ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortgani kuzatildi. Interaktiv metodlarning samaradorligi: Loyiha asosidagi o'qitish, STEAMintegratsiyasi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, savol berish, muhokama qilish, dalillash ko'nikmalarini rivojlantirgan. Ayniqsa, guruhlarda ishlash va taqdimotlar orqali o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalari mustahkamlangan. O'qituvchining shaxsiy namunasi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi: Ilmiy tafakkurga ega bo'lgan, savol-javob madaniyatini yo'lga qo'ygan, o'z faniga mehr bilan yondashgan o'qituvchilar darslarida o'quvchilarning ilmiy qarashlari sezilarli darajada faollashgan. Fanlar aro integratsiya ilmiy dunyoqarashni kuchaytiradi: Fizika, biologiya, kimyo, geografiya kabi tabiiy fanlar o'rtasida o'zaro bog'liqliklar yoritilgan darslarda o'quvchilarning borliqni yagona tizim sifatida anglash darajasi yuqorilagan. Bunday darslar real hayotga moslashtirilganligi sababli qiziqarli va esdaqolarli bo'lgan. Ilmiy dunyoqarashga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud: Ba'zi holatlarda darslar faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolgan, bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini cheklagan. Shuningdek, ba'zi maktablarda tajriba o'tkazish vositalarining yetishmasligi, o'quvchilarning no teng tayyorgarlik darajasi, ota-onalarning ilmiy madaniyat darajasining pastligi kabi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish—murakkab, ko'p bosqichli va izchil pedagogic jarayon bo'lib, bunda innovatsion metodlar, motivatsiya, amaliy faoliyat va o'qituvchining yetakchilik roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning real hayot hodisalarini ilmiy asosda tushunish, tahlil qilish va ularga mos ravishda fikryurit ish qobiliyatini shakllantiradi.

Xulosa

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish—zamonaviy ta'limning eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ilmiy dunyoqarash faqatgina darslikdagi bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqlarini tushunish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali yuzaga keladi. Shuningdek, maktab o'quvchilarida ilmiy tafakkurni rivojlantirish uchun: interaktiv va loyiha asosidagi metodlar, fanlar aro integratsiya, eksperimental faoliyat, o'qituvchining shaxsiy namunasi muhim omillar sifatida ajralib turadi. Tadqiqotda ko'rsatib o'tildiki, o'quvchilar bilan olib borilayotgan darslar faqat nazariy bilim doirasida qolmasligi, balki amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bu esa ularda dunyoni ilmiy asosda anglash va ongli qarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan o'quvchi

nafaqat fan sohasida muvaffaqiyatga erishadi, balki har qanday hayotiy muammoga tahliliy yondashadigan, sog'lom fikrlovchi, ijtimoiy jihatdan faolshaxs sifatida shakllanadi. Shubois, ta'lim jarayonida ushbu kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Xalq so'zi) 2017-yil 20-sentyabr

2.Mirziyoyev . Sh Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent: "O'zbekiston " NMIU 2017.B.32

3. Raxmonkulov.F.R (2024) VATANPARAVR MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB VAZIFASI. Academic research in educational sciences 5(2) 536-543

4.Juraev.B.X " Vatanparvarlik " O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnal. 13-son. 2022-yil

5.Dilfuza Azizova O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi raisi. (ZARNEWS